



Husayn Voiz Koshifiy asarlari asosida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy-didaktik asoslari

Mexmonaliyev Shodibek Navfal o'g'li –
Farg'ona davlat universiteti,
“Pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: mexmonaliyevshodibek93@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0414-3730>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq mutafakkiri Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-pedagogik merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, “Futuvvatnomayi Sultoniy” hamda “Anvori Suhayliy” asarlarida ilgari surilgan axloqiy tamoyillar tizimli o'rganildi. Ushbu asarlarda adolat, halollik, sabr-toqat, rahm-shafqat, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy kamolot g'oyalari yetakchi o'rin tutishi aniqlandi. Mazkur qadriyatlarning bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari Koshifiy merosidan pedagogik ta'lim jarayonida samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: aqliy-axloqiy qadriyatlar, Husayn Voiz Koshifiy, bo'lajak o'qituvchi, axloqiy tarbiya, pedagogik meros

Теоретико-дидактические основы формирования духовно-нравственных ценностей у будущих учителей на основе произведений Хусейна Ваиза Кашифи

Аннотация. В данной статье на научно-теоретическом уровне анализируется проблема формирования духовно-нравственных ценностей у будущих учителей на основе нравственно-педагогического наследия восточного мыслителя Хусейна Ваиза Кашифи. В ходе исследования системно изучены

нравственные принципы, изложенные в произведениях Кашифи «Ахлоки Мухсиний», «Футувватнома-йи Султоний» и «Анвори Сухайли». Установлено, что в данных трудах ведущую роль играют идеи справедливости, честности, терпения, милосердия, социальной ответственности и личностного совершенствования. Обоснованы дидактические возможности данных ценностей в формировании личности будущего учителя. Результаты исследования показали, что эффективное использование наследия Кашифи в педагогическом образовательном процессе способствует развитию духовно-нравственных компетенций будущих учителей.

Ключевые слова: духовно-нравственные ценности, Хусайн Ваиз Кашифи, будущий учитель, нравственное воспитание, педагогическое наследие.

Theoretical and didactic foundations for forming spiritual and moral values in future teachers based on the works of Husayn Vaiz Kashifi

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the issue of forming spiritual and moral values in prospective teachers based on the moral and pedagogical heritage of the Eastern thinker Husayn Vaiz Kashifi. In the course of the study, the moral principles advanced in Kashifi's works *Akhlaqi Muhsiniy*, *Futuvvatnomayi Sultaniy*, and *Anvori Suhayliy* were systematically examined. It was identified that the ideas of justice, honesty, patience, compassion, social responsibility, and personal self-development occupy a leading place in these works. The didactic potential of these values in shaping the personality of a future teacher is substantiated. The results of the study demonstrate that the effective use of Kashifi's heritage in the pedagogical education process contributes to the development of the spiritual and moral competencies of future teachers.

Keywords: spiritual and moral values, Husayn Vaiz Kashifi, prospective teacher, moral education, pedagogical heritage.

KIRISH

Globalashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlarning saqlanishi hamda yosh avlodning ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishi ta'lim tizimi zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki pedagog shaxsining axloqiy qarashlari, hayotiy pozitsiyasi va ma'naviy mas'uliyati o'quvchilarning dunyoqarashi va tarbiyaviy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy pedagogik nazariyada ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik merosni o'rganish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari pedagogik merosida axloqiy kamolot masalalari alohida o'rin tutadi. Husayn Voiz Koshifiy ana shunday buyuk allomalardan biri bo'lib, uning asarlarida inson tarbiyasi, axloqiy poklanish va jamiyat oldidagi mas'uliyat masalalari chuqur falsafiy-pedagogik asosda yoritilgan. Koshifiyning axloqiy qarashlari nafaqat o'z davri, balki bugungi pedagogik ta'lim ehtiyojlari bilan ham uyg'unlashadi.

Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiy asarlarida aks etgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning bo'lajak o'qituvchilar tarbiyasidagi nazariy-didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslash asosiy maqsad sifatida belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharq mutafakkirlarining axloqiy-pedagogik merosi asosida shaxs kamolotini ta'minlash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Xususan, Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar bugungi kunda ham ta'lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa, bolajak o'qituvchilar shaxsini shakllantirishda muhim didaktik manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda Koshifiy merosining axloqiy mohiyati, undagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq masalalar turli jihatlarida tadqiq etilgan. Jumladan, Sharq axloqiy tafakkuri rivojiga bag'ishlangan tadqiqotlarda (I.Haqqulov, A.Erkayev, N.Komilov va boshqalar) Koshifiy asarlari axloqiy me'yorlar, komil inson konsepsiyasi va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari bilan boyitilgani ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqotlarda adolat, halollik, sabr-toqat, kamtarlik va rahm-shafqat kabi fazilatlar shaxs tarbiyasining poydevori sifatida talqin etiladi.

Pedagogika sohasidagi ilmiy manbalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi alohida yo'nalish sifatida yoritilgan. Xususan, R.Mavlonova, B.Xodjayev, Sh.Sharipovlarning ishlarida o'qituvchi shaxsining axloqiy qiyofasi, kasbiy etika va pedagogik mas'uliyat masalalari chuqur tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotlarda o'qituvchining ma'naviy yetukligi ta'lim sifati va tarbiya samaradorligining muhim omili sifatida baholanadi.

Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" asari axloqiy tarbiyaning tizimli modeli sifatida ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortgan. Ushbu asar tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda undagi axloqiy tamoyillar shaxsiy kamolot, ijtimoiy muomala va kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. "Futuvvatnomayi Sultoniy" asarida esa kasb odobi, jamiyat oldidagi burch va mas'uliyat masalalari futuvvat g'oyasi orqali asoslab beriladi. Bu jihatlar bolajak o'qituvchilarda kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi ilmiy manbalarda qayd etilgan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlari merosini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv doirasida ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda tarixiy-pedagogik manbalardan foydalanish samarali vosita sifatida baholanadi. Bu boradagi ilmiy ishlar Koshifiy merosini bolajak o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga tatbiq etish zaruratini asoslab beradi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-pedagogik qarashlarini nazariy-didaktik asoslar nuqtayi nazaridan, aynan bolajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoniga yo'naltirilgan holda tizimli tadqiq etish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda Koshifiy merosidan pedagogik ta'lim jarayonida foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida pedagogik va falsafiy tadqiqotlarga xos bo'lgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Xususan, tarixiy-tahliliy metod yordamida Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-pedagogik qarashlari shakllangan tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit va ilmiy-falsafiy manbalar o'rganildi. Bu metod Koshifiy qarashlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash imkonini berdi.

Kontent-tahlil metodi orqali Koshifiy asarlarida uchraydigan asosiy axloqiy tushunchalar – adolat, halollik, sabr-toqat, futuvvat, rahm-shafqat va mas'uliyat kabi

kategoriyalar aniqlanib, ularning pedagogik mazmuni tizimlashtirildi. Aksiologik yondashuv asosida mazkur qadriyatlarning bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati baholandi.

Qiyosiy-pedagogik metod orqali Koshifiyning axloqiy g'oyalari zamonaviy pedagogik ta'limda qo'yilayotgan talablar bilan solishtirilib, ularning uyg'un jihatlari aniqlandi. Shuningdek, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish metodlari yordamida tadqiqot natijalari tizimli xulosalarga keltirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mukammal tizim sifatida yoritilganini ko'rsatdi. "Axloqi Muhsiniy" asarida axloq inson kamolotining asosiy mezon sifatida talqin etilib, pedagogik faoliyatda axloqiy poklik va adolat ustuvor tamoyil sifatida ilgari suriladi. Ushbu qarashlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy halollik va adolatli munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Futuvvatnomayi Sultoniy" asarida futuvvat tushunchasi orqali shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati ochib beriladi. Futuvvat insonning nafaqat shaxsiy kamoloti, balki boshqalarga xizmat qilish, jamiyat manfaatlarini ustuvor qo'yish bilan bog'liq axloqiy tizim sifatida talqin etiladi. Bu g'oyalar bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy faollik, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

"Anvori Suhayliy" asarida axloqiy g'oyalar ramziy hikoyatlar orqali yoritilib, tarbiyaviy ta'sir kuchi oshiriladi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarga tarbiyaviy jarayonda ibratli misollardan samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada, Koshifiy asarlari bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy ong, refleksiv fikrlash va shaxsiy o'zini-o'zi tarbiyalash ehtiyojini kuchaytiradi.

Olingan natijalar Husayn Voiz Koshifiy axloqiy qarashlarining zamonaviy pedagogik ta'lim tizimi bilan uyg'unligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar – kasbiy bilim, pedagogik mahorat va ma'naviy yetuklikning uzviy birligini taqozo etadi. Shu jihatdan Koshifiy merosidan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi.

Mazkur asarlarni pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy muammolarni tahlil qilish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarda adolatli pozitsiyani egallash ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, Koshifiyning hikmatli fikrlarini muammoli vaziyatlar asosida muhokama qilish pedagogik samaradorlikni oshiradi.

XULOSA

Mazkur maqola Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-pedagogik merosi asosida bolajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy-didaktik asoslarini yoritishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Futuvvatnomayi Sultoniy" hamda "Anvori Suhayliy" asarlarida ilgari surilgan axloqiy g'oyalar tizimli tahlil qilinib, ularning zamonaviy pedagogik ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berildi.

Koshifiy asarlarida yetakchi o'rin tutuvchi adolat, halollik, sabr-toqat, rahm-shafqat, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy kamolot kabi qadriyatlar bolajak o'qituvchi shaxsining kasbiy va ma'naviy yetukligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki jamiyatda axloqiy namuna bo'la oladigan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida Koshifiy merosining nazariy-didaktik imkoniyatlari aniqlanib, uni pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bolajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berildi. Xususan, Koshifiy qarashlarini ta'lim mazmuni, tarbiyaviy mashg'ulotlar va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga uyg'unlashtirish pedagogik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Husayn Voiz Koshifiyning boy axloqiy-pedagogik merosidan tizimli va maqsadli foydalanish bolajak o'qituvchilarda barqaror ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani takomillashtirishga, shuningdek, Sharq mutafakkirlari merosini zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.V.Koshifiy Ahloqi Muhsiniy. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. H.V.Koshifiy Maxzan-ul-Asror. Tehron: Markazi Nashr-e Ilmiy, 1993.
3. H.V.Koshifiy Anvori Suxayliy. Qum: Ansor nashriyoti, 2002.
4. H.V.Koshifiy Futuvvatnomayi Sultoni. Tehron: Nashr-e Varaq, 2003.
5. N.Jo'rayev O'zbek pedagogik tafakkur tarixida ma'naviy tarbiyaning o'rn. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2018.
6. Z.Niyozova Husayn Voiz Koshifiy axloqiy qarashlarining pedagogik talqini. Ma'naviyat va taraqqiyot jurnali, 2021. – B.45-50.
7. A.Xasanov Milliy qadriyatlar va pedagogik tafakkur. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
8. M.Usmonov Husayn Voiz Koshifiy merosining ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati. Sharq yulduzi jurnali, 2017. –B.123-130.
9. A.Saidov O'zbek mumtoz adabiyoti va ma'naviyat asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2015.